Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

GLOBAL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA NEFT-GAZ SEKTORIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING AHAMIYATI

TDIU MUSTAQIL IZLANUVCHISI
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI

Har bir korxona aniq maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan o‘z qarashlari hamda rivojlanish strategiyasiga ega. Ayniqsa korxonalarning investitsion jozibadorligini ta’minlashda qo‘yilgan maqsad va vazifalarni bajarish jarayonini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda korxonalarning tashqi va ichki muhiti tez o‘zgaruvchanligi sababli sanoat korxonalari faoliyatiga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatmoqda, bularga raqobat, xomashyo narxlarining o‘zgarishi, foiz stavkalari, valyuta kurslarining o‘zgarishi, iste’molchilarning xohish-istaklari o‘zgarishi, ilmiytexnik taraqqiyot va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Ushbu kabi omillarning noaniqligi korxonani belgilangan vaqtda maqsadlariga erishishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bunday vaziyatda korxonada o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmini ishlab chiqadigan, belgilangan maqsadlarga o‘z vaqtida resurslarni sarf qilishning maqbul miqdori orqali erishishga imkon beruvchi boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiyotning pandimiya jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar esa har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etmay qolmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “...milliy iqtisodiyotning mutanosibligini, barqarorligini ta’minlash hamda uni tarkibida sanoat, xizmatlar ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish, sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini va mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish darkor.

Shuningdek, sanoat korxonalarida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun puxta ishlab chiqilgan investitsiya siyosati asosiy o‘rin tutadi. Investitsiyalar iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida modernizatsiya, texnik va texnologik yangilanishlarni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda korxonalarning daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, investitsiya oqimlarini izchil oshirishga qaratilgan siyosat iqtisodiyotni yanada mustahkamlash imkonini yaratadi. Mamlakatimizda investitsiya hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham huquqiy, ham amaliy jihatdan samarali tashkil etilmoqda. Faol investitsiya siyosati

Published: 05.06.2026
Cite this article: Raimjanov Demir Raimjanxoji (2026). Global iqtisodiy transformatsiya sharoitida neft-gaz sektoriga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/922
© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

natijasida mamlakatimizda investitsiya oqimining dinamikasida ijobiy o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bu esa iqtisodiy faoliyatning jadallashishiga va sohadagi istiqbolli loyihalarning amalga oshirilishiga katta hissa qo‘shmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida qo‘lga kiritilayotgan yuksak natijalar, ya’ni yangi sanoat korxonalari va ishlab chiqarish quvvatlarining tashkil etilishi, iqtisodiy salohiyatning sezilarli o‘sishiga olib kelmoqda. Natijada ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar turlari kengayib, ularning sifati yaxshilanmoqda, bu esa iqtisodiyotimizga yangicha mazmun bag‘ishlamoqda. Ushbu yutuqlar mustaqil taraqqiyot strategiyasining to‘g‘ri tanlangani va amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligini ko‘rsatadi. Xalqimizning fidokorona mehnati bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Respublikamizda sanoat korxonalarini rivojlantirish uchun asosiy omillar sifatida quyidagilar ajratiladi:

• Maqsadli dasturlarni amalga oshirish;

• Zamonaviy infratuzilmani tashkil etish (suv, gaz, elektr energiyasi, transport);

• Xalq iste’moli tovarlarini ishlab chiqarish va bozorni ta’minlash;

• Neft va gaz sohasini rivojlantirish;

• Qo‘shma korxonalarning ulushini oshirish;

• Mahsulotlar eksportini kengaytirish va kichik korxonalarning tashqi bozorga yo‘naltirilishi. Modernizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash va barqarorligini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bu milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida neft va gaz sanoatida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash ko‘rsatkichlarini takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonlarini rivojlantirish yo‘nalishlarini tahlil qilish muhimdir. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti investitsiya oqimlariga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, Taraqqiyot strategiyasida belgilangan g‘oyalarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlarini rag‘batlantirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda texnik va texnologik yangilanish loyihalari uchun sarmoyalar jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bular milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim asoslaridan biri sifatida xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi” [2].

Milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarning ahamiyati haqida so‘z yuritganda, respublikamizning iqtisodiy rivojlanishi uchun investitsiya

loyihalarining ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim. Bu quyidagi yo‘nalishlar bilan izohlanadi:

1. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash: Investitsiya loyihalari zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi, bu esa eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish imkonini beradi.

2. Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish: Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyalashtirish orqali importga bog‘liqlikni kamaytirish va aholining turmush darajasini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

3. Ish o‘rinlarini yaratish: Kichik biznes va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish orqali aholining o‘sib borayotgan qismini ish o‘rinlari bilan ta’minlash imkoniyati tug‘iladi.

4. Texnik qayta qurollanish: Korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash va moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalashda muhim o‘rin tutadi.

5. Tabiiy resurslarni qayta ishlash: Tabiiy resurslarni qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarni tashkil etishga sharoit yaratadi.

Shu urinda statistik raqamlarga etibor qaratsak 2026-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘ g‘ ri kelib, 246,1 trln so‘ mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,1 foizni tashkil etgan holda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 20,3 trln so‘ m (7,0 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda 21,3 trln so‘ m (7,4 %) hamda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ ish va utilizatsiya qilishda 1,6 trln so‘ m (0,5 %)ni tashkil etgan. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko’rsatkichlari respublikada quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: tabiiy gaz – 9,6 mlrd m³, neft – 157,3 ming t, ko‘ mir – 1,1 mln t, avtomobil benzini – 313,2 ming t, dizel yoqilg‘ isi – 280,9 ming t, portlandsement – 4,1 mln t, ip kalava – 197,4 ming t, yumshoq bug‘doy va spelta uni – 407,9 ming tonnani tashkil etganini kurishimiz mumkin.

Bugungi kunda neft va gaz sanoatida taxminan 30 ga yaqin ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritib, avtobenzin, dizel yoqilg‘isi, aviakerosin, polietilen mahsulotlari, tabiiy va suyultirilgan gaz, bitum va boshqa tovarlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. O‘zbekistondagi investitsiya siyosatida mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yosh avlod uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport hajmini oshirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Ushbu sanoatning asosiy xususiyatlaridan biri — tarmoqni diversifikatsiya qilish, resurslarni chuqur qayta ishlash, yuqori texnologiyalarni jalb etish orqali samaradorlikni oshirishdir. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish nafaqat texnik

va texnologik modernizatsiyaga, balki ishlab chiqarish sifatini va mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Salomova S.S. Globallashuv sharoitida neft va gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati. “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” jurnali 9-son 2024 yil.

2. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoati korxonalari boshqaruvini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini baholash uslubiyoti. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 2022.

3. Salimov B.T. Sanoat maxsuloti ishlab chiqarishning hududlar bo‘yicha qiyosiy tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. No 3, may-iyun, 2018 yil.

4. Maxmudov E.X, Ortikov A., Karimov F. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini. / Hamkor. 2010 yil 7 fevral.

5. www.stat.uz.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti